

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA MEDIATA‘LIM DAN FOYDALANISH METODIKSI

**G‘aniyeva Gulhayo Islom qizi**

Termiz davlat pedagogika institut

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYASI

Bugungi kunda dunyo miqyosida tabiatshunoslik fanini multimedia vositalari asosida o‘qitishni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari darsda o‘quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. BMTning ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha “Ma‘rifiy, ma‘naviy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi bitimida dunyo miqyosida ta‘lim oluvchilarni o‘qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, ta‘lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga ega. Bu borada samaradorlikka erishish hamda multimedia vositalarining rolini va ta‘sirini oshirish, mavjud muammolarni konseptual o‘rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Kalit so‘zlar:** “tabiat”, “tabiat va biz”, “mediata‘lim”, “metodlar”, “ta‘lim texnologiyalari”, “multimedia vositalari”.

Bugungi zamonaviy umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchisining ma‘lumot hozirda axborot asrida yashayapmiz. Shu sababli ham og‘zaki ma‘lumotlarga qaraganda ko‘proq vizual ma‘lumotlarga e‘tibor qaratamiz. Aksariyat odamlar uchun televizor asosiy axborot manbai hisoblanadi. Vizual tasvirlar esa, jurnallar va gazetalarda muhim rol o‘ynaydi. Natijada esa olingan bilimlarning ko‘proq qismi maktabdan tashqari bilimlarga, ma‘lumotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda deyishimiz mumkin. Ko‘p holatlarda esa maktabdan tashqari olingan bilimlarni yoki informatsiyalarni aniq va ilmiy deb qarab bo‘lmaydi.

Chunki ularning ko‘pchiligi ilmiy asosga ega emas. OAV xabarlarining salbiy ta‘sirlari o‘quvchilar va o‘smirlarda dunyoning buzilgan tabiiy-ilmiy manzarasini shakllantirishda hamda ahloqiy poydevor va milliy o‘zlikni anglashning buzilishida namoyon bo‘lmoqda. Bu maktablar va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro ta‘sirini davlat axborot xavfsizligi darajasidagi muammolarga aylantiradi. T.S.Nazarova va E.S.Polatning “O‘quv vositalari: foydalanish va yaratish texnologiyasi” asaridan

maktab fanlariga integratsiyalashgan mediata'lim o'quv-tarbiyaviy jarayonga kiritilgan yagona tizimni aks ettirishi kerak deb ta'kidlagan.

B.S.Lednev fikriga ko'ra integratsiyalashgan mediata'lim tizimini yashirin tuzilmalar deb atash mumkin, ya'ni o'quv jarayonining yanada murakkab tuzilishga organik ravishda kirib borishi tufayli faqatgina tizim kuzatuvchisiga ko'rinadi, lekin undan alohida bo'la olmaydi. Bunday tuzilma tizimning proyeksiyasi yoki uning bo'limi deyiladi. Bu o'quv jarayonini ob'yektiv ravishda faqat ma'lum bir nuqtai nardan aks ettiradi.

V. S. Lednev bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita, ya'ni tashqi va ichki tuzilmaning bitta tizimda bo'lishini ta'kidlaydi. Bunday tuzilmalarni integratsiyalashgan mediata'limda ham topish mumkin. V.S.Lednev matn, rasmlar, grafiklar, formulalar bilan ishlash, kerakli ma'lumotlarni topish va undan foydalanish kabi umumiy o'rta ta'lim ko'nikmalari to'g'ri chiziq kabi bo'lish kerak deb hisoblaydi. Misol uchun o'quvchi turli shakldagi tabiat haqidagi ma'lumotlarni tushunish va keyinchalik ulardan foydalanish ko'nikmalarini doimiy ravishda o'rganib boradi, darsda u o'qituvchining ma'ruzasini tinglaydi, uning mazmunini tushunishga va taklif qilingan vazifalarni bajarishga harakat qiladi. Darslikni o'qish yoki masala yechishda o'quvchi qo'yilgan savollarga javob topadi, qo'shimcha ma'lumot olish uchun kerakli ma'lumotlarga murojaat qiladi. Darsda namoyish etilgan eksperiment, diafilm yoki videofilmida u o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq ma'lumotlarni osongina izlab topadi. Uni majoziy idrok etadi va shakllangan tushunchalardan keyingi ishlarida foydalanadi.

Shunday qilib, o'quvchilarda ma'lumot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish tabiiy fanlarni o'qitishning butun o'quv jarayoniga to'g'ri keladi. Tabiiy fanlarni o'rganish maktab o'quvchilarida ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasini bir qadar orttiradi. V.S. Lednev, A.A. Kuznetsov va S.A.Beshenkovlarning "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika o'qitish mazmunining nazariy asoslari to'g'risida" asarida bizni qiziqtiradigan informatikani o'qitish maqsadlari keltirilgan:

-ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish;

-axborot bilan ishlashning umum ta'lim va umummadaniy ko'nikmalarini shakllantirish;

-maktab o'quvchilarini keyingi kasbiy faoliyatga tayyorlash. Bu maqsadlardan kelib chiqib, informatika fanini mediata'limni o'quv fanlariga integratsiyalashda asosiy vazifalardan birini bajaradi deb aytish mumkin. L.S.Zaz-Nobinaning tushunchasiga muvofiq mediata'limning mazmuni ma'lum bir darsda o'rganilgan mavzu mazmuni bilan belgilanadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonidagi bilimlar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga, ilmiy fikrlash metodini yaratishga imkon

beradi. Ko'pchilik olimlarning ilmiy izlanishlari tufayli so'nggi yillar ichida ilmiy nazariya tuzilishiga asoslangan fanning tarkibiy qismlarini tizimli ravishda aks ettirishning muhim usullari ishlab chiqildi. Bu usullarning tabiiy fanlar ta'limi mazmunini takomillashtirishga bo'lgan xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har qanday o'quv fanini, shu jumladan, tabiiy fanlarni o'qitishni tashkil etish muhim. Tizimni yaratishning muhim xususiyati bu tizimning har bir elementini to'liq va mazmunli taqdim etish hisoblanadi. Tizimni yaratishning muhim xususiyati bu tizimning har bir elementini to'liq va mazmunli taqdim etish hisoblanadi.

Bu dastlabki faktlar va nazariy bilimlar bilan bir qatorda yangi faktlarning majburiy ravishda taqdim etilishini anglatadi. Ularning soni o'rganilayotgan masalaning murakkabligi va amaliy ahamiyati hamda ushbu masala o'rganishga ajratilgan o'quv soatining chegarasi bilan belgilanadi. Ushbu bosqichda tabiiy bilimlar sistemasining o'rnini aniqlash orqali erishilgan dastlabki faktlar, nazariy bilimlar va ma'lumotlar amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligida muhim hisoblanadi. Boshqa fanlardan farqli ravishda, tabiiy fanlarning mediata'lim yordamida o'qitilishi aloqaning zamonaviy texnik vositalarini o'rganish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

Ikkinchi ko'rinishi I.Ya.Lerner qobiliyatlarga asoslangan faoliyat metodlarini amalga oshirish vositasi sifatida belgilagan. O'quvchilarni tabiat to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ishlashning turli usullariga o'rgatish uchun o'qituvchi tomonidan shakllantirilgan ko'nikmalarga mos keladigan turli xil faoliyat turlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish muhim sanaladi. Bilimni faoliyatning metodologik asosi sifatida qarash yoki faoliyat usullarini bevosita bilish, ulardan real foydalanishni ta'minlay olmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Norbo'taev X.B. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2016. - № 6. – S. 34 – 39.
2. Narbayev A.B. Mediatexnologiya vositalaridan foydalanish astronomiya o'qitishda samaradorlikni oshirishning muhim omili. //O'zMU xabarlar. -Toshkent, 2018. -B. 268-272.
3. Norbo'taev X., Eshquvvatov Sh. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2015. - № 6. – B. 67 – 68.
4. Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan) -T.: Meros,1991. -47
5. Bahromov A.D., Sharipov Sh., Nabieva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3–sinfi uchun darslik. –T.; Cho'lpon, 2019 y.-126 b.
6. Бекетова О.А. Инновация в образовании: понятие и сущность // Теория и практика образования в современном мире: материалы Междунар. науч. конф. Июль. 2014 г. – Санкт-Петербург, 2014. – СПб.: Сатис, 2014. – С. 1 – 2.